

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

NUTQ FAOLIYATINING TURLARI VA O'RNI

Xalilova Shahnoza

Ochilova Oliya

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutq faoliyatining nafaqat pedagoglar, balki butun hayotimiz davomida tutgan o'rni haqida bayon qilingan. Nutq madaniyatining faqatgina nutqni egallash bilangina emas, balki undan to'g'ri foydalanish madaniyati ham asoslab o'tilgan. Pedagog faoliyatidagi nutq madaniyatiga qo'yiladigan talablar va ularning ahamiyati keng ko'lamda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy qobiliyat, pedagogik mahorat, faol nutq, passiv nutq, pedagogik talablar, ahloqiy madaniyat, nutqiy taqlid

Odamlar bir-birlari bilan muloqotda kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri tilga va nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar. Nutq inson faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ham nutq hisoblanadi. Nutq-tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida iltimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlashish jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Nutq faoliyati aloqa jarayonining o'zidir, nutq faoliyati tushunchasi, bir tomondan, til vositalaridan foydalangan holda fikr almashish va shakllantirish, ikkinchi tomondan, til tuzilmalarini idrok etish va tushunishni o'z ichiga olgan o'zaro bog'liq harakatalardan iborat jarayonni tavsiflaydi. Nutq faoliyatining quyidagi turlari farqlanadi: faol nutq va passiv nutq. So'zlovchining nutqi faol nutq, tinglovchining nutqi passiv nutq hisoblanadi. Albatta, nutqning har ikkala turi ham muloqotda asosiy o'rni tashkil qiladi.

Shaxsni har tomonlama barkamol qilib inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon hisoblanib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatdagi yetuk shaxslar jalb etilgan. Bu holat kelajak avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarda foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda,

ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tadbiiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi barkamol avlod ta'lim – tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy – ahloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, nafaqat, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolarga yo'l qo'ymaslik, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi kelajak avlod ongi kamolotining poydevori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu ma'suliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishini, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarni har tomonlama rivojlanirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'quvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart – sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ma'naviy – metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashishi lozim.

O'qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogic talablar asosida shakllanib boradi. O'qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o'giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi. O'qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida rivojlanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o'qituvchining shijoatiga bog'liq.

Bu qobiliyat tufayli pedagogning nutq madaniyatiga xos bo'lgan vositalar shakllanadi:

1. Nutq madaniyati o'qituvchining ma'naviy – axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko'rsatuvchi, o'z ona tilimizga e'tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.
2. Nutq madaniyati o'qituvchilarni ma'naviy va madaniy saviyasi bilan hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma'lum ma'noda ajratib turadi.
3. Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo'lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar ma'naviy jihatdan tarbiyalash.
4. Nutq madaniyati – bu, avvalo, o'qituvchilarda nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarini hosil qiladi. Bu ko'nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.
5. Nutq madaniyatiga o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun o'qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va uni deklamatsiya bilan o'qiy olishi, radio va televideniya eshittirilishlarini kuzatib borishi lozim.
6. Nutq madaniyatini egallashning yana bir ko'rinishi nutqiy taqlid bo'lib, yosh o'qituvchilar o'zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma'noli va ta'sirchan nutq so'zlaydigan ustoz murabbiylarining nutqiy san'atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o'rganishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.R.Qo'ngurov, Yo.Tojiyev, E. Begmatov. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - T., 34-36- bet.
- 2.E.Begmatov , A. Boboyeva, M. Asomiddinova, B. Umurqulov. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari . – T., 39-41 bet.
- 3.T. Quدراتov . Nutq madaniyati asoslari. - T., 22- bet.
4. www. ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti.

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>